O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA’LIMI VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

«MEHNAT TA’LIMI VA UMUMIY TEXNIKA FANLARI»
KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
“Tasviriy san’at va mehnat ta’limi”
fakulteti dekani v.b
___________ A.Qo’shoqov
«__»______________2014 y

**5142000- Mehnat ta’limi yo’nalishi bo’yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun**

**“5-sinflarda gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi bo’yicha yozgi o’quv amaliyotini tashkil qilish va o’tkazish”**
**mavzusida bajarilgan**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajaruvchi:** **Murodova Hilola**

**Ilmiy rahbar:** **katta o’qituvchi G.M.Axmedova**

Ishni himoyaga tavsiya etaman: katta o’qituvchi G.M.Axmedova

BMI «Mehnat ta’limi va umumiy texnika fanlari» kafedrasi yig’ilishining qarori bilan (Qaror № 8, 27.05.2014 y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: dots.B.X.O’razov

**J i z z a x - 2 0 1 4**

**M U N D A R I J A**

KIRISh......................................................................................................3

I. BOB. GAZLAMALARGA IShLOV BERISh TEXNOLOGIYaSI BO'YIChA YoZGI AMALIYoTNI TAShKIL QILIShGA DOIR DARS MATERIALLARINI TAHLRILI..............................................................................................6

1.1.Mehnat ta'limi darslarida yozgi o'quv amaliyotini mazmuni............................6

1.2. Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi bo'yicha yozgi o'quv amaliyotni tashkil qilish...........................................................................................16

II. BOB. 5-SINFDA O'QUVChILARNING GAZLAMAGA IShLOV BERISh TEXNOLOGIYaSI BO'YIChA YoZGI O'QUV AMALIYoTNI TAShKIL QILISh REJASINI IShLAB ChIQISh.........................................................39

2.1.O'quvchilarni yozgi o'quv amaliyotini tashkil qilish bo'yicha uslubiy tavsiya ishlab chiqish...........................................................................................39.

2.2. 5-sinf o'quvchilari uchun yozgi o'quv amaliyotni o'tkazish rejasini ishlab chiqish.......................................................................................................46

III. XULOSA...........................................................................................53

IY. FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO'YXATI......................................54. ..

# K I R I Sh

Yosh avlodga ta’lim – tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan ko’nikma, malaka, bilimlarni shakllantirish davlat siyosatining ustivor vazifalaridan xisoblanadi.Ana shu ustivor vazifalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo’lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida yuksalish bilan belgilanadi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunni amalga oshirishda mavjud ta’lim va kadrlarni tayyorlash tizimlarini tubdan o’zgartirish zamonaviy ilmiy fikrlar yutuqlari va ijtimoiy tajribalarga, ta’lim jarayonining hamma bosqichlarida, uzluksiz ta’lim tizimi, ta’lim muassasalarining hamma shakl va turlarida ilg’or metodik tajribalarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Zero, shaxsning ma’naviy yetukligi, bilimdonligi, zehnliligi mana shu muammoni yechish jarayonida namoyon bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta’kidlaganidek, «Mustaqil O’zbekistonning yangi kishisini tarbiyalash zamon talabidir. Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e’tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma’naviy fazilatlar egasi bo’lib voyaga yetishiga farzandlarimizning hayotga nechog’li faol munosabatda bo’lishga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog’liq ekanligini hamisha yodda tutishimiz kerak.»

Ta’lim to’g’risidagi qonun qabul qilingandan keyin mamlakatimizdan ta’lim sohasida tubdan o’zgarishlar amalga oshirilmoqda, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimida alohida bir bugun vujudga keldi, ya’ni o’rta maxsus va kasb hunar ta’limi tizimi. Bu tizimda aksariyat o’quvchilar hayotga va ishlab chiqarish sohalariga mutaxassis qilib tayyorlanadi. Bunga esa bevosita maktablarda o’quvchilar yo’naltiriladi.

Bugungi kunda eng muhim va birinchi darajali vazifalardan biri shundan iboratki, umumiy ta’lim maktablarini bitiruvchilar o’qish davrida fan asoslariga doir bilimlarni chuqur o’zlashtira qolmay, ommaviy kasblardan biriga yo’naltiriladi.

Muhtaram Prezidentimiz o’zining O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida nomli asarida shunday degan edi: - Yana bir masala, Biz turli obyektlar qurish haqida gapiramiz ayni paytda, men o’ylaymanki bu masala zamirida bir masala mavjud gap shundaki biz kadrlarni oldindan tayyorlab bormaymiz. Aytish kerakki, kasb-hunar va texnik ta’limda hamma ishlar, yo’nalish nuqtai nazardan ham, tarmoqlar bo’yicha kadrlar tayyorlashga e`tabor qaratish qayd etilgan.

Mehnat ta’limi bo’yicha Davlat ta’limi standartida umumiy o’rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limi va kasb tanlashga yo’naltirishning tayanch mazmuni hamda maktabni bitirgan o’quvchilarning mehnat ta’limi fanidan tayyorgarlik darajasining me’yorlari ifodalanadi.

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining o’quv rejasida mehnat ta’limi o’quv faniga 1-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7 sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9 sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo’lib 408 soat vaqt ajratiladi.,

O’quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo’naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog’ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va mashina elementlari yo’nalishlari bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarni egallashlari ko’zda tutiladi

Shu boisdan ham ushbu bitiruv malakaviy ishimda mehnat ta’limi dolzarb bo’lgan ayrim muammolarini yechimi bo’yicha fikr yuritishga harakat qildim.

## **Bitiruv malakaviy ishi mavzusini dolzarbligini asoslash**.

Mustaqillikka erishgan davlatimizning yosh avlodlariga milliylik ruhidagi ta’lim va tarbiya berish jarayonini amaliy saviyasini oshirish hozirda dolzarb xarakter kasb etadi. Buning uchun avvalo yosh avlodni umum o’rta ta’lim maktablarini milliylikka talluqli o‘quv dasturlari, o‘quv darsliklari va qo‘llanmalari asosida amaliy o’rganish jarayonini ta’minlash kerak bo‘ladi.

Shu jumladan, umum o‘rta ta’lim maktablarida mehnat ta’limini o‘qitish saviyasini oshirish omillaridan biri milliylik talabi asosidagi har o’quv yili oxirida o’quv yili mobaynida olingan bilim ko’nikmalarni o’quv yili oxiridagi o’quv amaliyoti orqali mustahkamlash hisoblanadi.

Mehnat ta'limining barcha yo'nalishlari bo'yicha 5-7 sinflarda o'quv yili oxiridagi yozgi o'quv amaliyotini tashkil qilish bo'yicha hozirga qadar uslubiy tavsiya va ko'rsatmalar ishlab chiqilgan emas. Shuning uchun umum o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga yozgi o'quv amaliyotini tashkil qilish bir muncha qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Shu boisdan men bitiruv malakaviy ishimni mavzusini tanlashda, mehnat ta'limi bo'yicha DTS asosida 5-7 sinflarda olgan bilimlarini mustahkamlash uchun ularning yozgi amaliyotlarini tashkil qilish masalariga qo'l urgan holda, bititruv malakaviy ishimning mavzusini "**5-sinflarda gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi bo'yicha yozgi o'quv amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish"** deb nomladim.

## Bitiruv malakaviy ishini maqsad va vazifalari.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishini bajarishda o'z oldimga umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat ta'limi bo'yicha o'quv dasturlarida "Servis xizmat" yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning yozgi amaliyotlarini tashkil qilish va o'tkazish rejasini ishlab chiqishni maqsad qilib qo'ydim. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni yechishni lozim deb topdim:

- Mehnat ta'limi darslarida yozgi o'quv amaliyotini mazmunini tahlil qilib chiqish;
- Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi bo'yicha yozgi o'quv amaliyotni tashkil qilishga oid manbalarni tahlil qilish;
- O'quvchilarni yozgi o'quv amaliyotini tashkil qilish bo'yicha uslubiy tavsiya ishlab chiqish;
- 5-sinf o'quvchilari uchun yozgi o'quv amaliyotni o'tkazish rejasini ishlab chiqish.

# I. BOB. GAZLAMALARGA IShLOV BERISh TEXNOLOGIYaSI BO'YIChA YoZGI AMALIYoTNI TAShKIL QILIShGA DOIR DARS MATERIALLARINI TAHLILI.

## 1.1. Mehnat ta'limi darslarida yozgi o'quv amaliyotini mazmuni.

O‘quvchilarga o‘quv yili davomida myehnat ta’limining “Servis xizmati” yo’nalishi gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan o‘quv amaliyoti davrida byevosita qatnashish va ko‘rish ta’ssurotlari orqali mustahkamlash imkoniyati bo‘ladi.

Umumtexnologik tamoil mehnat ta’limini o’quvchilarda hozirgi zamon ishlab chiqarishining umumiy ilmiy asoslariga doir bilimlar shakllanadigan va ular ishlab chiqarish-texnik faoliyatining ko’p sohalarida qo’llanadigan umumlashgan malakalarni egallaydigan yo’sinda tashkil etishni talab qiladi. Boshqacha aytganda, o’quvchilarga ular ustaxonalardagi mashg’ulotlar jarayonida oladigan texnik va texnologik bilim, kunikma va malakalarning universalligini; bu bilim, kunikma va va malakalardan yangi ishlab chikarish sharoitlarida foydalana olish (malakalarni ko’chirish) kerakligini ko’rsatish zarur.

O’quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining muhim tarmoqlari bilan ikki yo’l orqali tanishtirish mumkin: a) ularning har birini izchil o’rganish; b) ishlab chiqarish jarayonlarini ularning asosi bo’lgan tabiiy-ilmiy qonuniyatlarga bog’liq holda klassifikasiyalash va mazkur qonuniyatlarni xalq xo’jaligining bir-ikkita tarmog’i misolida o’rganish orqali.

Birnnchi yo’lni maktabda qo’llab bo’lmaydi, chunki u juda ko’p o’quv vaqtni sarflashni talab qiladi. Ikkinchi yo’l esa maktabda xalq xo’jaligining eng muhim tarmoqlarini o’rganish uchun real imkoniyat yaratadi va didaktik jihatdan ancha qimmatlidir, chunki u xalq xo’jaligining o’quvchilar maktabda o’rgangan tarmoqlari bilan o’rganmagan. tarmoqlari orasida uzviy bog’lanishni ta’minlaydi.

Gap shundaki turli ishlab chiqarish jarayonlari sirtdan qaraganda har xilligidan qat'i nazar, anchagina o'xshashlik va umumiylikka ega, chunki ular ko'pincha tabiatning bir xil qonun va hodisalaridan foydalanishga asoslangan.

Tabiat qonunlaridan har xil texnik qurilma va texnologik jarayonlarda ularning ilmiy asosi sifatida foydalanilishidan kelib chiqib, ba'zi pedagoglar umumtexnologik ta'lim vazifalarini fan asoslariga oid predmetlar doirasida to'la bajarish mumkin, deb noto'g'ri xulosaga keldilar. Fan asoslarining umumtexnologik ta'lim ishidagi katta ahamiyatini inkor etmagan holda buning o'zi kifoya qilmasligini ko'rmaslik mumkin emas. Fan asoslariga doir predmetlarni texnikadan olingan misollar bilan boyitish muammoni hal qilmaydi, chunki bunda doimo u yoki bu ishlab chiqarish hodisasining o'quv predmetining mazkur mavzusiga bog'liq bir tomoni kurib chiqiladi. Shu sababli o'quvchilarda ishlab chiqarish hodisasi haqida umuman tasavvur hosil bo'lmaydi. Masalan, o'quvchilarda detal haqida fan asoslarining u yoki bu qonunidan foydalannshning konkret misoli sifatida emas, balki mashinaning tipovoy qismi sifatida to'la tasavvur hosil qilish uchun uning vazifasi va mashinadagi o'rni haqida, zagotovkasi uchun materiallar tanlash, uni proyektlash va tayyorlash haqida gapirib berishi kerak. Ko'rinib turibdiki, bunda fan asoslari bo'yicha maktab predmetlarida ko'riladigan masalalar haqidagina emas, balki ularga kirmaydigan (masalan, detalni tayyorlash) masalalari haqida ham gapirish kerak. Shunday qilib, ishlab chiqarish hodisasi haqida,tabiatdagi u yoki bu qonunning illyustrasiyasi sifatida gapiradigan bo'lsak, bunda faqat uning bittagina sifatini yoritish mumkin. Agar ishlab chiqarish hodisasi har tomonlama xarakterlansa, fan asoslari bo'yicha predmetlarni o'rganish mantiqini buzadi, bu predmetlar mazmuniga ularga bevosita aloqasi yo'q materialni kiritishga majbur qiladi.

Bundan tashqari, mehnat usullarini egallash didaktikanpng asosiy tamoiliga bo'ysundirilgan va o'z mantiqiga zga bo'lgan ma'lum bir tizimi bo'yicha amalga oshishi kerak. Agar mehnat usullarini egallashni fan asoslari bo'yicha ayrim predmetlar vazifasiga kiritilsa, ular ana shu predmetlarning tuzilishi mantiqiga bo'ysunadi.

Nihoyat, mehnat obyektlarini tanlashda fizika, mamavzutika va boshqa predmetlarning o'qituvchilari eng avval shu obyektlar o'tilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishiga harakat qilishadi, mehnat jarayonining mazmuni esa ikkinchi rejaga o'tib qoladi. Natijada amaliy mashg'ulotlar uchun obyektlar tanlash juda cheklangan va mehnat ta'limi tizimi talablariga javob bera olmaydigan bo'lib qoladi.

Shunday qilib, o'quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim tarmoqlari bilan tanishtirish fan asoslari bo'yicha predmetlar doirasi bilan chegaralanmasligi kerak. Xuddi shuning uchun ham maktab o'quv rejasida mehnat ta'limi bo'yicha maxsus predmet bor.

Ta'lim jarayonining umumtexnik yo'nalishini ta'minlash uchun ayrim konkret ishlab chiqarish jarayonlari misolida hozirgi zamon sanoati yoki qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining umumiy asoslari o'rganiladigan didaktik vaziyatni vujudga keltirish talab qilinadi.

Ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish quyi sinflardagi mehnat darslaridayoq qisman mumkin bo'lib qoladi. O'quvchilar asosan o'zlari uchun zarur buyumlarni tayyorlaydilar. Ularni moddiy boyliklar yaratishga qatnashtirish imkoniyatlari o'rta sinflarda kengayadi. Bu sinflarda unumli mehnat shunchaki ixtiyoriy emas, balki majburiy ham bo'lib qoladi («Unumli mehnat» mavzulari). Dasturlarda o'quv materialini tizimlashtirishning qabul qilingani bilan o'rta siiflarda o'quvchilarni unumli mehnatga jalb etish osonlashadi.Har bir o'quv mavzu mehnat faoliyatining muayyan tugallangan sikliga bag'ishlanadi. Bular texnik mehnat darslarida tipovoy buyumlar (masalan, konturi to'g'ri chiziqli yassi detallar, simdan yassi shaklli buyumlar va hokazolar) tayyorlashdan; servis va qishloq xo'jaligi asoslari darslarida texnologik nuqtai nazardan tugallangan ishlar kompleksini (masalan, taomlar tayyorlash; ip va kanop gazlamalar bilan ishlash; ildiz mevalilar urug'larini ekish va hokazolarni) bajarishdan iboratdir. Shu tufayli har bir mavzu o'rganilgach o'quvchilarning mehnatidan amalda foydalanilgan bo'ladi va o'quvchilar uning natijalari foydaliligini baholay oladilar. O'quvchilarni unumli mehnatga tortishda dasturlarda ularning mehnat obyektlari

qat’iy cheklangan doirada belgilanmagani ham katta ahamiyatga ega. Bu obyektlar har qaysi maktabning konkret imkoniyatlariga qarab tanlanadi (bunda, albatta, o’quvchilar dasturda ko’zlangan hajmdagi bilim, kunikma va malakalarni egallashlari kerakligi shartiga amal qilinadi). Shuningdek, masalan, o’rta sinflar dasturlarida mahalliy ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olib, yangi bo’limlarni ishlab chiqish va joriy qilishga ruxsat etiladi,

Yuqori sinflarda unumli mehnat norma bo’lib qoladi, chunki busiz o’quvchilarga konkret ishlab chiqarish kasblarini o’rgatish mumkin emas.

Shunday qilib, ta’limnn unumli mehnat bilan qo’shish vazifasi mehnat ta’limi dasturlarida yetarli darajada o’z ifodasini topgan, deb xulosa chiqarish mumkin.

Yuqorida aytilganidek, mexnat ta’limi darslarida bolalar asosan amaliy ishlar bilan shug’ullanadilar. Bu ishlarni bajarish uchun ular asboblar bilan ishlash usullarini o’zlashtirishlari yetarli. Shu bilan birga dasturlarda ularni ishlov beriladigan materiallarning xossalari bilan tanishtirish ham nazarda tutilgan, bu materiallarni taqqoslash talab qilingan hozirgi zamon texnikasi, texnologiyasi va ishlab chiqarishni tashkil qilish bo’yicha ma’lum hajmdagi bilimlar ifodalangan. Dasturlarning mana shu talablari tufayli ularning variativligiga qaramay, hamma o’quvchilar hozirgi zamon ishlab chiqarishining asoslari haqida deyarli bir xil hajmdagi bilimlarni oladilar.

O’quv dasturi mehnat tarbiyasiga muayyan hissa qo’shadi, chunki bu tarbiyaning asosiy shartlaridan biri o’quvchilar faoliyatining unumli xarakterda bo’lishidir. Bundan tashqari, dastur mazmunining o’ziyoq o’quvchilarda mehnat madaniyatini, umumiy mehnat aktivligini, ularning uquv mehnat faoliyati motivlarini shakllantirish, iqtisodiy tarbiya, tashabbuskorlik, mehnatga ijodiy munosabat va hokazolar uchun yaxshi baza bo’lib xizmat qiladi. Bu borada hamma gan faqat mehnat ta’limi uslubida, uning samaradorligida qolgan.

Dasturlarda kasb tanlash ishlariga ko’proq ahamiyat beriladi. Bunda birinchidan, quyi, sinflardan boshlab o’quvchilarni qanday kasblar bilan tanishtirish kerakligi haqida bevosita ko’rsatmalar mavjud. Bundan tashqari o’qituvchining tashabbuskorligi uchun ham keng imkoniyat mavjud. Bu borada

ishlab chiqarishga qilinadigan ekskursiyalar nihoyatda muhim rol o'ynaydi, bunday ekskursiyalarni hamma sinflarda o'tkazish nazarda tutilgan.

Mehnat ta'limining muhim vazifasi uning boshqa o'quv predmetlari bilan bog'lanishini ta'minlashdan iboratdir.Shu sababli barcha mehnat ta'limi dasturlarida predmetlararo aloqaga oid konkret ko'rsatmalar mavjudligi bejiz emas. Har bir mavzuda fan asoslari bo'yicha tushunchalar ro'yxati bo'lib, ular qaysi predmetlarda va sinflarda o'rganilgani ko'rsatilgan. Bu mehnat ta'limi o'qituvchisining ishini ancha osonlashtiradi.

O'quvchilarni ijodiy mehnatga jalb qilish kabi masalalar ham mehnat ta'limi dasturlarida ma'lum darajada aksini topadi. Bu qishloq. xo'jalik asoslari yunalishida tajribachilikdan, texnologiya va dizayn, servis yunalishlarida esa buyumlarni konstruksiyalashga va ularni yasash texnologiyasini ishlab chiqishga jalb qilishdan iborat. Dasturning ba'zi mavzularida bu haqida bevosita ko'rsatmalar, ba'zi mavzularida esa zarur shartlargina beriladi, ulardan foydalanish tamomila o'qituvchiga bog'liq. Shu sababli bunda ham mehnat tarbiyasidagi kabi ko'p narsa mehnat ta'limi o'qituvchisi foydalanadigan ta'lim uslubiga bog'liqdir.

Yuqorida bayon qilinganlardan mehnat ta'limi dasturlari mehnat ta'limi oldiga o'quv predmeti sifatida qo'yilgan talablar va vazifalar hisobga olib tuzilgan deb xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu erishilgan natijalar bilan xotirjam bo'lib qolish mumkin, degan ma'noni bildirmaydi, albatta. Hali dasturlar sifatini oshirishning katta rezervlari mavjud. Bu rezervlarni ochish va ulardan foydalanishda o'qituvchilar aktiv ishtirok etishlari kerak.

Shunday qilib, umumiy ta'lim maktabi islohoti o'quvchilar mehnat tayyorgarligini yangi, yanada yuqori darajaga kutarib, hozirgi yuksak rivojlangan servis va ishlab chiqarish korhonalaridagi mehnat xodimlariga quyyadigan talablariga javob beradi.

Ilg'or tajribani o'rgannsh natijalari yozgi mehnat choragiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga oid ish rejasining taxminiy mazmuni mehnat birlashmalarining marosimlari aa an'analarini tavsiya qilishga imkon beradi.

Rejada uch davr: tayyorgarlik davri, ish davri va yakun yasash davri ajratib ko'rsatiladi.

Tayyorgarlik davrida korxonalarning yozgi davr uchun kadrlarga bo'lgan talablari to'g'risida buyurtmalar o'rganiladi, mehnat shartnomalari tuziladi, mehnat birlashmalarining rahbarlari saylanadi, semnnarlar o'tkaziladp, moddiy baza hozirlab qo'yiladi, mehnat birlashmalarining a'zolariga xavfsizlik texnikasi qoidalari o'rgatiladi (o'qitiladi), ish rejasi, majburiyatlar ishlab chiqiladi va qabul qilinadi.

Ish davri o'quvchilarning yoshiga qarab bir oygacha davom ETADI. Bu davrda o'quvchilar foydali mehnat bilan shug'ullanishadi. oydali mehnat tarbiyaviy ish bilan qo'shib olib boriladi; o'quvchilar shonli voqyealar sharafiga vaxtada turishadi, kasbning eng yaxshi ISHCHISINI aniqlash uchun konkurslar utkaziladi, xalqning jangovar va mehnat shuhratini aks ettiruvchi joylarga safarlar, sport musobaqalari uyushtiriladi va hokazo.

Mehnat bayramlarida ko'rgazmalar, reportajlar uyushtirilib, ishga yakun yasaladi.

Mehnat birlashmalarining rivojlanishida yuqori sinf o'quvchilari mehnat otryadlari muhim rol uynaydi.Ularning ENG YAXSHI vakillari kelishadi. Bir necha kun davomida yoshlarniig kasblar bo'yicha konkurslari o'tkaziladi. G'oliblarga mukofotlarni mimlakatimizning taniqli kishilari topshirishadi. O'quvchilar yuksak vatanparvarlik tuyg'ulari bilan, o'zining butun kuchini vatanga xizmat qilishga bag'ishlash hissi bilan to'lib-toshgan holda joy-joylariga tarqalishadi.

Mehnat birlashmalari o'z marosimlari va an'analariga zga. Masalan, mehnat birlashmasining tantanali majlisida mehnat birlashmasi a'zoligiga tanishtiruv o'tkaziladi. Birlashmaning har bir a'zosiga yengga taqiladigan shevron, har qaysi mehnat birlashmasiga esa bayroq topshiriladi. Mehnat va dam lagerlarida har kuni ertalab va kechqurun ish lineykalari o'tkazilib, raportlar topshiriladi, mehnat topshiriqlari beriladi, mehnat birlashmasining bayrog'i ko'tariladi va tushiriladi. Mehnat birlashmasi kengashning qarori bilan tantanali yig'ilishlar o'tkaziladi va hokazo.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarga mehnat tarbiyasi berish tizimining muhim tarkibiy qismidir. Bu ishlar o'quvchilar tashkilotlari orqali, shuningdek, o'quvchilar qumitasi, ota-onalar, keng jamoatchilik va ishlab chiqarish jamoalarining faol ishtirokida amalga oshiriladi. O'qituvchi, o'quvchilarning o'qishdan tashqari vaqtda turli ishlarga jalb qilib,ular urtasida jamoatchilik munosabatlarini vujudna keltirib, katta avlod bilan keng aloqada bo'lishni tashkil qilib, dunyoqarash tushunchalarini, mehnat va grajdanning asosiy vazifalari to'g'risida tassavurlar va qarashlarni shakllantirish, bularni ancha kengaytirib shaxsiy e'tiqotlar darajasiga yetkazish imkoniyatiga ega.O'qituvchi maktab o'quvchilarida eng yaxshi axloqiy xislatlarni aniq maqsadni kuzlab tarbiyalashi, tashkilotchilik kunikma vqa malakalarini takomillashtirishi, ularning umumtexnik va texnologik bilimlarini boyitishi, kasbga bo'lgan qiziqishlarini mustahkamlashi lozim. Ammo buning uchun sinfdan tashqari ishni o'quv jarayoni bilan uzviy qushib olib borish zarur, shunday holatga erishish kerakki, sinfdan tashqari ish uning mantiqiy davomi va yakuni bulsin.Buni esa o'quvchilar ijtimoiy va jismoniy jihatidan kamol topa borganlari ari sinfdan tashqari ish vazifalari, mazmuni va shakllari doimo va bosqichma– bosqich boyib, kengayib va murakablashib, ta'lim uslublariga, maktab o'quvchilari har bir yosh guruhi qiziqishlari, mayllari va talab ehtiyojlariga mos bo'lgan taqdirdagina amalga oshirish mumkin.

Maktab o'quvchilarini jamoada inoq bo'lib dustona ishlashga,o'rtoqlariga kumaklashishga, boshlagan ishni oxiriga yetkazishga, uz mehnatini tug'ri tashkil qilishga,vaqtni qadrlashga, kuchlarni tejashga,materiallarni tejab-tergab sarflashga urgatish,oddiy mehnat topshiriqlarini rejalashtirishning eng maqbul qoidalari bilan tanishtirish,mehnat jarayonida o'z hatti harakatlarini muvofiqlashtira bilishni, ularni tahlil qila olishni, shuningdek o'z o'rtoqlarining tishini nazorat qila bilishni,o'z mehnatini va kichik guruhlar mehnatini doimo hisobga olishni o'rgatish, kichik yoshdagi o'quvchilarni zvenoda va otryadda musoboqani tashkil qilishga jalb etish lozim. O'smirlarni qurshab turgan hamma narsalar va buyumlar, shuningdek

uylar, maktablar, kasalxonalar, fabrikalar,zavodlar katta avlodlar tomonidan yaratilgan degan xulosani chiqara bilishga o'rgatish zarur.

Maktab o'quvchilarini kasblar olamidan xabardor qilish, ularda o'z ota-onalari va yaqin kishilarining kasblariga alohida qiziqish uyg'otish, ishchi,dehqon, chorvador kasblariga hurmat bilan qarashni moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlashga o'zini tayyorlash istagini tarbiyalash kerak.

O'quvchilarga, ayniqsa, kichik va urta yoshdagi o'quvchilarga mehnat tarbiyasi berishda suhbatlardan keng foydalaniladi. Bunday suhbatlarning qimmatli jihati shuki, savolllarning puxta o'ylangan tizimi yordami bilan o'quvchilar u yoki bu tushunchaning mohiyatini,masalan, mehnatsevarlik,ishchi shon-sharafi, vijdon mohiyati yoki grajdanlik burchini sezish, mehnatga va mulkchilikning har xil turlariga munosabat singari bir muncha murakab axloqiy ma'yrlarning mohiyatini qanchalik to'g'ri tushunishlarni bilib olish mumkin.Suhbatda savollar yordami bilan o'quvchilarni kishilarning asosiy axloqiy xislatlari to'g'risidagi ularning mehnatga va mehnat ahliga munosabati haqidagi, ijtimoiy vaj sabablari, mehnat jasorati va maqbul mehnat uchun harakat manbalari va shu kabilar to'g'risidagi xulosalarga olib kelish mumkin.

Suhbat natijali bo'lishi uchun uning asosiy maqsadini aniq tassavur qilish, ya'ni o'quvchilarni nimalar bilan tanishtirishni istayotganingizni,qanday tassavur yoki tushunchani ularda shakllantirish niyatida ekanligingizni,munosabatlar va harakatlar ning qanday tipini ishlab chiqish lozimligini bilish zarur. Maqsad aniqlanganidan keyin suhbat rejasini belgilab olish kerak.Reja aniq bo'lishi va urtaga quyilgan masalalarni o'z ichiga olishi lozim.O'quvchilarni suhbatga tayyorlashda ularga qanday kitobni yoki ruznomalar,yoxud oynomalardan olingan qanday maqollarni o'qib chiqish zarurligini, qanday filmlar kurish lozimligini tavmiya qilish kerak.Suhbat utkazishdan bir necha kun oldin o'quvchilarga ota-onalari bilan suhbatlashib, o'z mehnapt jamoalari, o'rtoqlarining ishlari haqidagi ularning aytganlarini yozib olishni, utkaziladigan suhbat mavzuda albom yoki stend jihozlashni

tavsiya etish mumkin. Suhbat oldidan o'quvchilarga mavzuga jonli qiziqish urgatish, ishonch, xayrixoxlik, hissiy kutarinkilik muhitini vujudga keltirish zarur. Suhbatning mntiqiy yuli uzilib qolmasligi, dunyoqarashga oid asosiy qoidalar va tushunchalar kursatib berilishi, bayon qilinishi muhimdir. Suhbatning samarali bo'lishi uni o'tkazuvchi o'qituvchiga, uning ovozining tembriga, mimikasiga, imo-ishoralariga, musiqaning jur bo'lishiga, o'quvchilarning hissiyotlari va his tuyg'ularini idora qila bilishga ham bog'liqdir.

Ta'til vaqtida o'quvchilar bajaradigan unumli mehnat, ijtimoiy- siyosiy, madaniy-ommaviy va sport ishlari ularning grajdanlik yetukligini, mehnatga va mustaqil hayotga tayyorgarligini tekshirib kurish maktabidir.

Sinf rahbarlari o'zini o'zi idora etish organlari bilan birgalikdagi ishlab chiqarish jamoalariga yordam berish yuzasidan shanbalik va yakshanbaliklar utkazadilar, o'quvchilarning ishlab chiqarish korxonalari, davlat xujaliklari va jamoa xujaliklari rahbarlari bilan uchrashuvlvrini tashkil qiladilar.Bularning hammasi o'quvchilarning mehnat maqsadlarini anglab olishlariga yordam beradi, o'quvchilar jamoasini mehnat jamoasi bilan ma'naviy jihatidan yaqinlashtiradi,ular urtasida ijtimoiy munosabatlarni urnatadi, maktab o'quvchilarda sanoat, qishloq xujaligi va servis mehnatchilarining turmushiga qiziqish tug'diradi,xalq xo'jalik vazifalarini hal qilishda kumaklashish ishtiyoqini vujudga keltiradi.

Sinf rahbarlari o'z o'quvchilarining kasbga bo'lgan qiziqishlarini, sihat-salomatligini aniqlab, ulardan har birining qanday mehnat birlashmasiga a'zo bulib kirishi kerakligini aytib beradilar, ularga maslahat qiladilar.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan o'tkazgan suhbatlarida yozgi ta'til vaqtida o'quvchilarning bekor yurishi be'mani qiziqishlar, nosog'lom ishtiyoqlar, fe'l-atvorda salbiy xususiyatlarning paydo bo'lishiga va shu kabi illatlarning vujudga kelishi mumkinligini kursatib beradilar, ta'til paytida ishga jalb etilgan bolalarning turmushi, mehnati va dam olishi qanday tashkil etilishini,o'qituvchilar va mutaxassislardan kimlar o'quvchilar bilan

shug'ullanishlarini, ular nimalarni bilib olishlarini, rimalar bilan boyishini aytadilar.Bunda shunga erishish muhimki, ota-onalar maktab o'quvchilarining unumli mehnatda qatnashish zarurligiga g'oyat amin bo'lishlari, maktab tashabusini qullab-quvatlashlari lozim.

Yuqori sinf o'quvchilarini mehnat lagerini tashkil qilishdan iborat tashkilotchilik ishiga keng jalb qilish ularning mehnat va ijtimoiy faolligini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bu ishda qatnashib, mustaqil xujalik faoliyatining real sharoitlariga tushib qoladilar, jamoa haqida g'amg'urlik qilishni, mustaqil ish kurishni, tashabusni urganib oladilar, tashkilotchilik mahorati va malakalarini ortiradilar,o'zlari bajarishlari lozim bo'lgan ish uchun maktab va jamoa korxonalari oldida javobgarlik hissini sezadilar.

Iqtisodiy munosabatlarning o'quvchilar g'oyaviy va axloqiy yetukligiga utkazayotgan ta'sirini urganish anchadan buyon tavsiya qilinmoqda, yigit va qizlarda atrof-tevarakdagilarga, xususiy va ijtimoiy mulkka, ishlab topgan pullarga omitlkorlik bilan munosabatda bo'lish qanday shakllanayotganligiga, tajribada ishonch hosil qilishga erishish uchun harapkat qilinmoqda. Yuqori sinf o'quvchilari bu jarayonda o'z mehnatini ishchilar mehnati bilan taqqoslab,ota-onalari, davlat va xalq oldidagi o'z burchini hushyorlik bilan idrok qila boshlaydi, mehnatni normalish maqsadga muvofiq ekanini anglaydi, mehnatga haq tulash ahamiyatini tushunadi va mehnat bilan topilgan sumning qadriga yeta boshlaydi. Lagerda o'quvchilar brigadir vazifasini navbatma-navbat bajarsalar, mehnat normalari va unga haq tulash bilan tanishsalar, bevosita mehnat jarayonlari tashkil etilib, mehnat natijalari hisobga olib borilsa, o'z o'rtoqlarining, brigadalarning va umumiy lager jamosining ishhaqi aniqlarib tursa, ijtimoiy ulg'ayishning anga shu jarayoni bir muncha muvafiqiyatli kechadi. O'quvchilar qanday ishlarni qancha bajarganliklarini,qancha pul ishlab topganliklarini, ovqatga qancha sarflanganini,safarlar , yurishlar va shu kablar uchun jamoa fondiga qancha pul ajratilganini har kuni ularga ma'lum qilib turish lozim. Mehnatning iqtisodiy jihati va lager jmaoasining xujalik hisob-kitoblari to'g'risida o'quvchilar tula

xabardor qilib turilishi ularni real turmush sohasiga olib boradi, bu esa ularni mehnatchilar, omilkor xujayinlar sifatida tarbiyalaydi.O'quvchilarning mehnat jarayonida qatnashishi ularni mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish bilimlariga ega buladi, o'zining tashkilotchilik kunikma va malakalarini rivojlantiradi.

## 1.2. Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi bo’yicha yozgi o’quv amaliyotni tashkil qilish.

Mehnat ta’limi bosqichlari orasidagi izchillik umumtexnik timaoyil uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, o’quv ustaxonalardagi mashg’ulotlarda o’smirlar quyi sinflarda o’zlashtirgan qator umumtexnik malakalarni qo’llashi va takomillashtirishi juda muhimdir. Chunonchi, qog’ozni rejalashda chizg’ich, go’niya va qalamdan foydalanish malakasini yog’och va metallni rejalashda qo’llash kerak. Bu jihatdan o’quvchilarning andaza rejalash malakalari juda foydali bo’ladi. O’quvchilar qog’ozni, gazlamani va listli metallni qaychi bilan qirqish orasida ko’pgina umumiylikni topadilar. Modellashtirish jarayonida o’quvchilar yana shu ish bo’yicha quyi sinflarda olgan bilimlarini qo’llashi va hokazolar uchun cheklanmagan imkoniyatlar vujudga keladi.

I—IV sinflarda ustaxona mashg’ulotlari bilan mehnat ta’limi darslarining bog’lanishi o’z xarakteriga ko’ra bir tomonlamadir, ya’ni V—VII sinflardagi o’qitish uslubi I—IV sinflardagi mehnat ta’limi mazmunini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. O’quv ustaxonalardagi mashg’ulotlar bilan fan asoslari bo’yicha predmetlar orasidagi bog’lanish bundan farqli ravishda ikki tomonlamadir: bunday bog’lanish natijasida fan asoslari bo’yicha predmetlar konkret mazmun bilan boyiydi, mehnat esa fan asoslarining qonunlari pozisiyasidan tushuniladi. Shunday qilib, didaktik bog’lanishlarni ta’minlash fan asoslari bo’yicha predmetlarni o’qitishning ham, ustaxonalarda mashg’ulotlar o’tkazish umumtexnik saviyasini oshirish uchun ham muhimdir.

Ta’limni foydali mehnat bilan qo’shib olib borishning samarali formalarini izlab topish ustida olib boridgan ishlar o’quvchilarning mehnat birlashmalari paydo bo’lishiga olib keldi. Bunday birlashmalar hozirgi vaktda yuqori va o’rta sinf o’quvchilarining ko’p qismini qamrab oldi.

Eng keng tarqalgan mehnat birlashmalari jumlasiga o’quvchilarning ishlab chiqarish brigadalari, maktab o’rmon xo’jaliklari, yuqori sinf o’quvchilarining

mehnat otryadlari, maktablarni yangi o'quv yiliga tayyorlovchi remontchi quruvchi brigadalari, mehnat va dam olish lagerlari kiradi.

Dastlabki o'quvchilarning ishlab chiqarish brigadalari 1954 yilda paydo bo'lgan edi. Endilikda ularning soni bir necha o'n mingdan oshib ketdi. O'quvchilarning ishlab chiqarish brigadalari qishloq maktablarida tuziladi. Odatda, bunga VIII—IX sinf o'quvchilari jalb qilinadi. Brigada a'zolarining soni o'ntadan bir necha yuztagacha bo'lishi mumkin.

Mazkur brigadalarga, shuningdek, V1—VII sinflan o'quvchilari ham jalb qilinishi mumkin, lekin ular yoshlariga mos tanlangan rejim bo'yicha ishlaydilar. Brigada dalachilik zvenolari, chorvachilik zvenolari, mexanizatorlar zvenolari hokazo zvenolarga bo'linadi. Brigadaning umumiy majlisida o'quvchilar ichidan saylangan brigadir brigadaga boshchilik qiladi (zvenoga esa zveno boshlig'i rahbarlik qiladi). Brigadaning umumiy majlisi brigada kengashini ham saylaydi. Har bir brigadaga maktabning pedagog xodimlaridan rahbar va kolxoz mutaxassisi birkitib qo'yiladi. Ishlab chiqarish brigadasi ixtiyoriga muayyan obyekt, masalan, ma'lum miqdorda yer beriladi. Brigada ana shu yerda ishlaydi. Buning uchun shirkat jamoalari brigadaga zarur mehnat qurollari (xususan, qishloq xo'jalik mashinalari) va materiallar (o'g'itlar, urug'lik fondi va hokazo) ham ajratadi, dala shiyponi qurib beradi, oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. O'quvchilarning ishlab chiqarish brigadasi ijtimoiy-foydali, unumli mehnatga ajratilgan vaqt hisobidan yil davomida ishlaydi. Ish maktab va shirkat rahbarlarida brigada kengashi ishtirokida tuzilgan o'quv-ishlab chiqarish rejasi asosida olib boriladi. Odatda, o'quv-ishlab chiqarish rejasi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi: ishlab chiqarish topshirig'i; tajriba qilib kurish, rasionalizasiya, ixtirochilik o'quv topshirig'i, siyosiy-tarbiyaviy. madaniy-ommaviy ish va sport ishi. Uquv-ishlab chiqarish rejasi brigada a'zolarining umumiy majlisida, maktabning pedagoglar kengashida muhokama qilinib, maktab direktori hamda shirkatning raisi tomonidan tasdiqlanadi. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadasining mazmunidan ko'rinib turibdiki, brigadaga asosiy maktab topshiriqlari beriladi va hal etiladi. Buning o'z obyektiv sabablari bor. O'quvchilar brigadasining ishlab chiqarish topshiriqlari

mehnat jarayonida bajarilishi bilan ajralib turadi. O’quvchilar real ishlab chiqarish sharoitlarida bo’lib qishloq xujalik mehnatini chinakamiga tushunib oladilar. Shu munosabat bilan o’quvchilarning ishlab chiqarish faoliyati mehnat tarbiyasida va kasb tanlashga yo’llash ishida muhim ahamiyatga egadir. Lskin buning uchun unumli mehnat unga nisbatan maktabda qo’yiladigan barcha talablarga javob berishi zarur, albatta. Birinchi navbatda, mehnat ijodiy bo’lishi kerakligi ko’zda tutiladi. Shu maqsadda, odatda, o’quvchilarning qishloq xo’jaligidagi mehnati tajjribakorlik va rasionalizatorlik bilan bog’lanadi.

Tajribakorlik ayniqsa keng quloch yozdi. O’quvchilar ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba stansiyalarining topshirig’i bilan yangi ekinlarning urug’lik fondini yetishtirishadi, muayyan ekinni mazkur tabiat sharoitlarida yetishtirishning eng qulay shart-sharoitlarini, bu ekinga u yoki bu o’g’itning ta’sirini aniqlashadi. Shu tufayli o’quvchilar mehnati qiziqarli mehnatga aylanadi, ular o’zlarini kerakli ishga dahldor sezishadi va uni bajonu dil bajarishadi.

O’quvchilar ishlab chiqarish brigadalarida siyosiy-tarbiyaviy, madaniy-ommaviy ishga va sport ishiga katta ahamiyat beriladi. Bunga o’quvchilarning o’zini o’zi boshqarishi katta imkoniyat yaratadi. O’quvchilar brigadasining umumiy majlisi quyidagi eng muhim masalalarni hal etadi: ishning o’quv-ishlab chiqarish rejasini muhokama qiladi va uni bajarish yo’llarini belgilaydi: zvenolarning va umuman brigadaning sosialistik musobaqasi shartlarini tasdiqlaydi;" brigada a’zolarining intizomi va turmushiga oid, umumiy mulkni muhofaza qilishga oid masalalarni ko’rib chiqadi va brigada a’zoligiga qabul qilish, brigada a’zolarini rag’batlantirish hamda jazolash to’g’risidagi masalani hal etadi; ishlab topilgan mablag’dan brigadaning ijtimoiy fondiga qancha mablag’ ajratish kerakligini belgilaydi; bir yillik ish yakunlarini chiqaradi.

Brigadaning umumiy majlisi yiliga kamida ikki marta o’tkaziladi. Brigadaning kundalnk ishiga brigada kengashi boshchilik qiladi. Brigada komsomollarining majlisida yozgi davr uchun komsorg saylanadi, u siyosiy-tarbiyaviy va madaniy-ommaviy ishning tashkil qilinishiga javob beradi, siyosiy-axborotchilarga rahbarlik qiladi, brigada a’zolarini majburiyatlarini bajarishga

safarbar qiladi. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadalari tuzilgandan beri ularda muayyan an'analar hosil bayramlari, brigada a'zoligiga tantanali ravishda qabul qilish va boshqa an'achalar paydo bo'ldi.

O'quvchilar mehnat birlashmalarini bir turi bo'lgan mehnat va dam olish lageri o'z tashkiliy asosi bilan mehnat birlashmalarining boshqa turlaridan bir oz farq qiladi. Mehnat va dam lagerlari foydali mehnat jarayonida o'quvchilarni milliy istiqlol ruhda tarbiyalash maqsadida yozgi ta'tillar davrida tuziladi. Bunday lagerlarda umumiy ta'lim maktablarining VIII—IX sinf o'quvchilari qatnashadi. Ular asosan shahar maktablari o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Mehnat va dam lagerlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash, ularning ijtimoiy aktivligini oshirish; o'quvchilarning foydali mehnatda ishtirok etishini ta'minlash» ularda mehnat uquvlarn va ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga hamda xalq xo'jaligida faol mehnat qilishga tayyorlash; o'quvchilarning mazmunli dam olishlarini, jismonan sog'lom bo'lib o'sishlarini ta'minlash, sog'lig'ini mustahkamlash o'quvchilarni aholi orasida madaniy-ommaviy ishni tashkil qilishga jalb etish. Mehnat va dam lagerlari sayyor mehnat birlashmalari negizida ishlashi mumkin. Keyingi yillarda mehnat birlashmalariiing yangi turi—yuqori sinf o'quvchilarining mehnat otryadlari paydo bo'ldi. Bunday otryadlarga asosan yuqori sinf o'quvchilari jalb qilinadi. Ushbu otryadlar oziq-ovqat va to'qimachilik sanoatida eng keng tarqaldi. Bu otryadlarning strukturasi va maqsadlari o'quvchilarning ishlab chiqarish brigadalariniki bilan bir xil bo'lsada samaradorligi ancha past. Buning sababi ikkita.

Birinchidan, yuqori sinf o'quvchilarining mehnat otryadlari faqat yoz faslida tuziladi. Ma'lumki, bu davrda korxonalarning ko'pchilik ishchi xizmatchilari otpuskada bo'lib, ularning ish o'rinlari bo'sh bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilar muntazam ravishda foydali mehnat qilish imkoniga ega bo'la olmaydilar.

Ikkinchidan, bu yerda hordiq chiqarish sharoitlari shahardan tashqaridagi lagerlardagiga nisbatan yomonroq bo'ladi. Shunga qaramasdan, yuqori sinf

o'quvchilarining mehnat otryadlari istiqbollidir. Asosiy vazifa yuqorida aytilgan kamchiliklarni bartaraf etishdan iborat.

Ilg'or maktablarning ish gajribasi bu muammoni batamom hal etish mumkinligini ko'rsatdi.

Yuqori sinf o'quvchilarining mehnat otryadlari to'g'risida aytilgan hamma fikrlar maktablarni yangi o'quv yiliga tayyorlaydigan remontchi quruvchnlar brigadalariga ham taalluqlidir.

O'quvchilar mehnat bnrlashmalarining asosiy turlari usti-da qisqacha tyxtalib, millionlarcha o'quvchilarni qamrab olgan bu sosial pedagogik hodisani baholashga o'tish mumkin.

Shuning uchun pedagoglar kollektivi, keng jamoatchilik butun kuchini o'quvchilarning mehnat birlashmalari zamirida yotgan imkoniyatlardan imkoni boricha to'laroq foydalanishga qaratmoqlari kerak. Mehnat birlashmalari O'quvchilarda aktiv hayotiy pozisiyani, turmush tarzini shakllantirishda samarali omil bo'lmog'i lozim. Shu maqsadda jkda kup ish qilinmoqda.

***Ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borishning asosiy yo'llari.***

Yoshlarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlashni tubdan yaxshilash maqsadida umumta'lim maktabi oldiga o'z ishida ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish prinsipini to'laroq amalga oshirish vazifasi qo'yilgan.

Maktablarni isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarni unumli mehnatga jalb qilishning asosiy ikki yo'li belgilab berilgan: mehnat ta'limi jarayonida va II—XI sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan yangi o'quv rejasida ko'zda tutilgan majburiy ijtimoiy foydali, unumli mehnat jarayonida.

Bu yo'llar bir-biriga monandlansa, ta'limni, unumli mehnat bilan qo'shib olib borish eng samarali bo'ladi. Bu holda mehnat ta'limidagi unumli mehnatga va o'quv dastursida ko'zda tutilgan unumli mehnatga ajratilgan vaqtlar birlashtiriladi, butun unumli mehnat esa o'quvchilar mehnat ta'limida olgan bilim hamda o'quvlar zaminida tashkil qilinadi. Bunday mehnat malakaliroq, binobarin, o'quvchilar uchun qiziqarliroq va xalq xo'jalik korxonalari uchun

mahsuldor bo’ladi. Oxirgi holni e’tiborga olmaslik mumkin emas. Eng yaxshi o’quv-ishlab chiqarish kombinatlari (UChKlar) ning ish tajribasidan ma’lumki, o’quvchilar har yili qiymati minglab so’mlar bilan o’lchanadigan mahsulot berishadi. Mehnat ta’limiga ajratilgan vaqtni majburiy unumli mehnat hisobiga ko’paytirish umumta’lim maktabida kasb o’rgatish saviyasini kutarщdga nmkon beradi, bu esa umumiy professional ta’lim sharoitida ham juda muhimdir.

Biroq, mehnat ta’limi va majburiy unumli mehnatni birlashtirishga sharoit hamma yerda ham birdek emas Masalan, o’quvchilar xizmat ko’rsatish sohasiga doir kasblarni (sotuvchilik, sartaroshlik va hokazo) o’rganadigan maktablarda buning imkoni yo’q. Bundan tashqari, mazkur maktabning o’quv-material bazasi yetarli darajada bo’lmasligi mumkin. Bunday hollarda shunga harakat qilish kerakki, yuqorida aytib o’tilgan yo’llar mohiyati jihatidan turlicha bo’lsa ham, ammo albatta unumli mehnatga olib, boradigan bo’lsin. Chunonchi, elektrotexnik kasbini o’rganayotgan VIII—XI sinf o’quvchilari majburiy unumli mehnat jarayonida konveyerda buyumlar yig’ish bilan shug’ullanishlari mumkin. Ma’lumki, elektrotexnik kasblar anchagina nazariy bilimlarni talab qiladi, shuning uchun ularga tayyorlash qat’iy belgilangan o’quv dasturlari bo’yicha amalga oshiriladn. Holbuki, konveyerda hatto eng kam tayyorgarlikka ega bo’lgan o’quvchilarning ham qo’lidan keladigan oddiy mehnat operasiyalari yetarlicha bo’ladi. Shunday qilib, o’quvchilarning unumli mehnatini tashkil qilish imkoniyati ta’minlanadi.

Lekin bu variantni ham hamma yerda amalga oshirish mumkin bo’lavermaydi. Bu holda o’quvchilar mehnat (kasb o’rgatish) ta’limi jarayonidagi unumli mehnat bilan bir qatorda ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinadilar, bunday mehnatga o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish, qariyalarga qarashish, xiyobon va parklarni tozalash va shu kabilar kiradi. Avval aytib o’tilganidek, unumli mehnat pedagogik jihatdan asoslangan rahbarlik bilan ta’minlanishi va maktabning ta’lim-tarbiyaviy maqsadlariga bo’ysundirilishi kerak. U qo’llanmaning birinchi qismida ko’rib chiqilgan mehnat ta’limining prinsiplari, formalari va uslublariga muvofis ravishda tashkil qilinadi. Unumli mehnat jarayonida maktabning, otaliqqa olgan

korxonaning ehtiyojlari uchun yordam tariqasida buyumlar tayyorlanadigan bo'lsagina, bunday fikr so'zsiz haqqoniy bo'ladi. Maktablar, korxonalarning buyurtmalarini bajaradigan va shu asosda ular bilan iqtisodiy aloqalarga kirishadigan hollarda esa ba'zi xususiyatlar paydo bo'ladiki, ular ta'lim-tarbiya jarayoniga va uni tashkil qilish shart-sharoitlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu xususiyatlar shu bilan bog'liqki, maktab korxona buyurtmalarini bajarar ekan, o'z zimmasiga muayyan majburiyatlar oladi: mahsulot belgilangan muddatda tayyorlanishi va berilgan texnik shartlarga javob berishi, birinchi navbatda, muayyan, aniqlikda chiqishi shart. Suz V—VII sinf o'quvchilari haqida borganda, ularning texnikaga oid bi limlari hajmi katta emasligini va amaliy uquvlari caviyasi juda pastligini nazarda tutish zarur. Buyumlarning hatto nisbatan uncha katta bo'lmagan aniqligi ta'minlanishi uchun texnologik jarayon mehnat operasiyalarini bajarishni osonlashtiradigan va mehnat unumdorligini oshiradigan moslamalar bilai ta'minlanishi zarur, Shu sababli moslamalarni loyihalash va tayyorlash V—VII sinf o'quvchilari unumli mehnatining xarakterli xususiyatiga aylanmoqda. Bunda, odatda, bu ishga yuqori sinf o'quvchilari ham qo'shilishyapti. Shu asosda ular bilan o'rta bo'g'in o'quvchilari orasida ishlab chiqarish aloqalari yuzaga kelmoqdaki, ulardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish mumkin. Ishlab chiqarish aloqalari unumli mehnat jarayonida V—V I I sinf o'quvchilarining o'zlari orasida ham o'rnatilishi mumkin. Bunga keng qo'llanilayotgan mehnat taqsimoti yordam beradi.

Baza korxonalar ko'nincha buyumlariing katta partiyalar tarzida ishlab chiqarilishidan manfaatdor bo'ladi. Shu munosabat bilan ularning o'zlari maktablar uchun texnologik jarayonning zamonaviy jihozlarini loyihalaydi va tayyorlab beradi. Bunday yordam maktablar uchun juda foydalidir.lekin u mehnat ta'limi davomida loyihalashga bo'lgan e'tiborning susayishiga olib kelmasligi lozim.

Baza korxonaning buyurtmasiga muvofiq tashkil qilingan unumli mehnat uchun unga to'lanadigan haq xarakterlidir, chunki u o'quvchilarning mehnat va iqtisodiy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar mehnatiga haq amalda bajargan

ishiga qarab to'lanadi. Ishlab topilgan pulning bir qismi o'quvchilarning qaroriga muvofiq maktab ixtiyoriga o'tkazilishi mumkin.

Korxonaning buyurtmasi bilan tashkil qilinadigan unumli mehnat bevosita korxonada o'tkazilsa, uning xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Buning sababi shundaki, o'quvchilar ishini tashkil qilish formalari turli-tuman bo'lishi mumkin: o'quvchilar mehnat qilib mustaqil topshiriqlarni bajarishadi yoki ishchi brigadalari sostavida ishlashadi. Korxonada unumli mehnat qilish jarayonida o'quvchilar tayyorlaydigan buyumlar nomenklaturasi, odatda maktabda ishlagandagidan torroq bo'ladi. Ishlab chiqarish manfaatlari nuqtai nazaridan buni batamom oqlash mumkin, chunki shu tufayli ishlab chiqariladigan mahsulotning seriyaliligi ortadi va mehnat unumdorligi o'sishi uchun sharoit yaratiladi. Ammo o'qituvchi o'quvchilarning ishi haddan tashqari zerikarli bo'lib qolmasligi va o'quv dasturining bajarilishi haqida g'amxo'rlik qilishi kerak bo'ladi.

Unumli mehnatni amalga oshirishning yuqorida ko'rib chiqilgan ikki asosiy yo'lidan tashqari, maktablarning ish tajribasida uchinchi yo'l ham mavjud bo'lib, bunda o'quvchilar o'qishdan bo'sh vaqtlarda korxonalarda individual tarzda yoki mehnat birlashmalari sostavida ishlaydilar. Masalan, o'quvchilar yozgi ta'til vaqtida otpuskaga ketgan ishchilar o'rnida ishlashadi. Bu ayniqsa yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun xosdir.

Turli xil yosh gruppalaridagi o'quvchilarning unumli mehnatini tashkil qilishning asosiy bosqichlari va formalarini ko'rib chiqamiz.

### *O'quvchilarni unumli mehnatga jalb qilish talablari*

O'quvchilar unumli mehnatga muvaffaqiyatli jalb qilinishi uchun bir qancha; tashkiliy-pedagogik, texnik-iqtisodiy, uslubiy-va psixologik-pedagogik talablar bajarilishi kerak.

Tashkiliy-pedagogik talablarga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqalar o'rnatish;, tayyorgarlik ishlari ro'yxatini aniqlash; unumli mehnatni ishlab chiqarish mantiqiga xos tarzda tashkil kilish; ishlab chiqarish rejasi tuzish; kadrlar tanlash; o'quvchilarning unumli mexnatini

pedagogik jihatdan boshqarish (mehnat. o’qituvchilari va masterlar faoliyatini maktabning boshqa o’qituvchilari faoliyati bilan muvofiqlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonida o’quvchilarning o’zini-o’zi boshqarish organlarini jalb qilish, maktab hamda ishlab chiqarish kollektivlarining o’zaro hamkorligi); o’quvchilar unumli mehnatining sistematik xarakterda bo’lishi; o’quvchilarning ish o’rinlarini va mehnat mazmunini rejali ravishda almashtirib turish; kollektiv, gruppaviy va individual ish formalarini samarali tarzda qo’shib olib borish; o’quvchilar mehnatining xavfsizligi.

Ba’zi tashkiliy-pedagogik talablar ustida mufassalroq to’xtab o’tamiz. Ishlab chiqarish muhitini tahlil qilish natijalari o’quv ishlab chiqarishining sanoat korxonalari bilan ishlab chiqarish aloqalarini, ishlarning turi va profilini aniqlashga imkon beradi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotni rejalashtirish o’quv dasturlari va rejalarini o’z vaqtida bajarish, o’quv jarayonining moddiy-texnik jihozlanishini (uskunalar, jihozlar, materiallar, hujjatlar va hokazo) rasional tashkil qilish va tayyorlab qo’yish, unumli mehnat obyektlarini to’g’ri tanlash, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va muddatlarini belgilash, ishning turli formalarini (kollektiv, gruppaviy, individual) muvaffaqiyat bilan qo’shib olib borish imkonini beradi.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasini tuzishda baza korxonadagi tegishli bo’linmaning, o’quv ishlab chiqarish ma’muriyatining vakillari, brigadirlar kengashi qatnashadi. Buyumlar ishlab chiqarish rejasi o’quv-ishlab chiqarish bazasi (UChK, UChM)ning rahbari tomonidan tasdiqlanadi va buyurtmachi bilan kelishib olinadi. Odatda, bunday reja quyidagi formada tuzilishi mumkin: •

“Tasdiqlayman" Rahbar (UChK.UChM) .”

“Kelishilgan* (buyurtmachi vakili)

| t/r | Buyumning nomi | Buyumlar soni | Buyurtmachi | Mahsulotning taxminiy narxi | Tayyor mahsu-lotni yetkazib berish muddat-lari | Eslatma |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | |

O'quv ishlab chiqarishida o'quvchilarni mehnatga tayyorlashning yagona tizimini yaratish uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tgan kadrlar kerak bo'ladi. Ular o'quv materiallarini, ta'sir ko'rsatishning turli-tuman uslubiy qoidalari va tashkiliy formalarini chuqur bilishlari, bilimdon bo'lishlari, g'oyaviy e'tiqodli bolalarni sevishi, o'z bilim doirasini doimo kengaytirishga intilishlari, o'quvchilarda garmonik rivojlangan shaxs uchun zarur bo'lgan sifatlarnn tarbiyalashlari lozim. Faqat o'qituvchi va masterlar emas, balki o'quvchilar bilan birga ishlaydigan malakali ishchilar ham qanoatlantirishi zarur bo'lgan asosiy talablar ana shulardan iborat. Boshqacha aytganda, ulardan texnik-texnologik bilimlargina emas, balki psixologik-pedagogik bilimlar ham talab kilinadi.

O'quvchilar ishi bir xilda va zerikarli bo'lmasligi uchun ular bajaradigan operasiyalarni almashtirib turish grafigini tuzish maqsadga muvofiqdir.

Grafik har bir o'quvchiga mashg'ulotlar boshlangunga qadar o'z ish o'rni va u yerda ishlash xarakteri bilan tanishib olishga imkon beradi.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasida ko'zda tutilgan buyumlar sinflarga taqsimlab chiqiladi. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib bitta o'qo'vchi uchun vaqt normasi va mahsulot ishlab chiqarish normasi belgilanadi, ishni muvaffa-qiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlar aniqlanadi.

Tashkiliy-pedagogik shartlarning muvaffaqiyat bilan amalga oshirilishiga tayyorgarlik operasiyalari kompleksi yordam beradi, u ishlab chiqarishni tashkil qilishning shunday formasini o'z ichiga oladiki, bu formada dastaki va mexanizasiyalashtirilgan mehnat vositalarini birlashtirish, o'quvchilarning mehnat

faoliyatini rag'batlantirish hamda tartibga solib turish, mehnat natijalarini kontrol qilish va hisobga olib borish, o'quvchilar mehnatini kollektiv mehnatga aylantirish, mehnatning ilg'or formalari va uslublarini amalga oshirish, ishlab chiqarish kollektivlarining mehnat an'analari (murabbiylik, musobaqa va hokazo) dan foydalanish, brigadalar, zvenolar va alohida o'quvchilar o'rtasidagi musobaqa natijalarini hisobga olish mumkin bo'ladi.

O'quvchilarni unumli mehnatga muvaffaqiyatli jalb qilish uchun zarur bo'lgan talablarning ikkinchi gruppasi — texnik-iqtisodiy talablardir. Bu gruppa talablari ichida eng muhimlari quyidagilardir: material-texnik baza, ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish, o'quv ishlab chiqarishi bilan sanoat ishlab chiqarishi o'rtasida iqtisodiy aloqalar o'rnatish. Bu gruppa quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: ish o'rinlarini ishlab chiqarish qurollari (uskunalar, asboblar, moslamalar, mexanizasiyalashtirish vositalari), shuningdek, mehnat buyumlari va ishlov beriladigan materiallar' bilan oqilona jihozlash; optimal texnologik jarayonii tanlash; o'quvchilarni texnik kontrol qilishga jalb etish; unumli mehnatning iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash; o'quvchilar mehnatiga norma belgilash; mehnatni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish; o'quvchilar mehnatining intellektual mazmunda bo'lishi, ijodkorlik va rasionalizatorlik elementlari.

Ishlab chiqarish (uskunalar, jihozlar, asboblar va hokazo) sanoat korxonalarining buyurtmasiga mos kelibgina qolmasdan, balki muayyan talablarga muvofiq tanlangan hamda sex va uchastkalarga joylashtirilgan bo'lishi ham kerak. Uquv ishlab chiqarishining material-texnik bazasi ishlarning tugallangan komplektini bajarishni ta'minlashi lozim. Ishlarning tugallangan komplekti buyumlarni qo'lda va mexanizmlar yordamida, ishlashni, ularni yig'ish va ularga texnikada keng tarqalgan materiallar bilan pardozlashni o'z ichiga oladi. Uskuna va jihozlar zamonaviy, puxta, uzoqqa chidamli, ishlatishga xavfsiz va qulay bo'lishi kerak, ya'ni mahsulot ishlab chiqarishga texnologik tayyorgarlik ko'rish zarur. Bunday tayyorgarlikni to'g'ri tashkil qilish, yuqorida aytilganlardan tashqari, quyidagilarni nazarda tutadi: o'quv ishlab chiqarishini asosiy va yordamchi

uskunalar, asboblar, moslamalar (qirquvchi, yordamchi va o'lchov) bilan ta'minlash; o'quvchilarning va ular bilan birga ishlaydigan ishchilarning ish o'rinlarini oqilona rejalashtirish; mahsulot ishlab chiqarishning uzluksiz ishlab chiqarish-texnologik potogini tashkil qilish; o'quv ishlab chiqarishini materiallar, zagotovkalar, tayyorlanadigan mahsulotning texnologik hujjatlari bilan uzluksiz ta'minlab turish; sanoat sanitariyasi, estetika normalariga va mehnatni tashkil qilish talablariga rioya qilish; mahsulotning texnik talablarga muvofiqligini kontrol qilishni tashkil etish. Bu ishda eng muhimi tayyor buyumlar sifatini rejali ravishda kontrol qilib borishni tashkil etish hisoblanadi. Bunday kontrolning mumkin bo'lgan variantlaridan biri maktab texnik kontrol bo'limi (MTKB) dir, bu buyumlar sifatini ish davomida, va uzil-kesil baholaydi.

O'quvchilarniig uchinchi gruppasiga uslubiy talablar kiradi. Ular quyidagilardan iborat: unumli mehnatni tashkil qilish formalarini, mehnat ta'limi uslublari va uslubiy qoidalarini tanlash; pedagoglar kollektivini o'quvchilarning mehnat faoliyatiga tayyorlash. Bu ishda o'qituvchi o'quv-uslubiy materialiga amal qilishi (mehnatga tayyorlash pro-grammalaridan, mehnat ta'limiga oid o'quv qo'llanmalari va shu kabilardan foydalanishi), mehnat ta'limi dastursining fan asoslari dasturlari bilan izchilligi va o'zaro bog'liqligini, vaqtli matbuotda e'lon qilingan materiallarni hisobga olishi, umummaktab vazifalari esa yosh gruppalarini hisobga olgan holda o'quvchilar mehnatining yagona perspektiv hamda davriy rejalashtirilishini shuningdek, bo'lg'usi ishning rejalashtirilishini (mehnat buyumlari, asboblarni, ish rejimini tanlash, buyurtmani bajarishning konkret texnologik rejasini tuzish) ta'minlashi o'quvchilarning kelajakda mehnat faoliyatini hamda fanlar asoslaridan olgan bilimlarini e'tiborga olgan holda ularni unumli mehnatga tayyorlashi, mehnat faoliyatining tarbiyaviy ishning boshqa turlari bilan qo'shib olib borilishini ta'minlashi zarur.

Va, nihoyat, o'quvchilarning oxirgi gruppasi psixologik-pedagogik talablardir. Ular unumli mehnat jarayonida rivojlantirilgan tarbiyaviy imkoniyatlarni o'rganish va ulardan foydalanishni nazarda tutadi. O'quvchilarning ushbu gruppasi mehnat uquvlari va ko'nikmalarining shakllanganlik darajasinn,

maktab o’quv-ishlab chiqarish bazasining mehnat muhitini, o’quvchilar yoshining xususiyatlarini, mehnat ta’limidagi oilaviy an’analarni, bo’lg’usi mehnatning jozibadorligini, o’quvchilarning mehnatda ishtirok etishlarining ijtimoiy ahamiyatga molik asoslarining shakllanganlik darajasini, o’quvchilarning mehnatga ahloqiy-psixologik jihatdan tayyorlik darajasini, ularning mehnatdagi o’z yutuqlarini anglab yetish darajasini ifodalaydi.

O’quvchilarning unumli mehnati har bir o’quvchining individual rivojlanganlik darajasini, uning psixikasining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak. O’quvchilarning mehnat faoliyati real ishlab chiqarish sharoitidagi prinsiplar zaminida (brigadalar tuzish, potok uslubida ishlash, gruppaviy va individual ishni qo’shib olib borish, musobaqa uyushtirish va hokazo) tashkil qilinishi lozim.

O’quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilinishi uchun qulay muhit yaratish unumli mehnatni tashkil qilishning muhim psixologik-pedagogik sharti hisoblanadi. Avvalo, o’quv ishlab chiqarishida sanitariya-gigiyena normalari va xavfsizlik talablari qat’iy bajarilishi shart. Mehnat topshiriqlarining bajarilish intensivligi, sur’ati va davom etish vaqti turli yoshdagi o’quvchilarning psixologik-fi-ziologik xususiyatlariga mos bo’lishi lozim.

`5-sinflar uchun myehnat ta’limining gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv amaliyoti tashkil qilishning namunaviy ishlanmasini tuzish asoslari. O‘quvchilarga o‘quv yili davomida myehnat ta’limining gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan o‘quv amaliyot davrida byevosita qatnashish va ko‘rish ta’ssurotlari orqali mustahkamlash imkoniyati bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘quv yili mobaynida mashg‘ulotlar davomida tabiiy tolalar, tabiiy tolali gazlamalar, ularga qo‘lda ishlov byerish tyexnologiyasi, qo‘l yuritmali tikuv mashinalari, maktabgacha bolalarga oid kiyimlarni bichish, tikish, modyellashtirish, tayyorlashga oid bilimlar bilan tanishgan bo‘lsa, o‘quv amaliyotida ular byevosita yaqindan ko‘rish ta’ssurotlari orqali amaliy tanishadilar.

O‘quvchilarga o‘quv amaliyoti o‘tkazishdan maqsad ular olishganva egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini byevosita amaliyot mobaynida mustaqil bajarish va ko‘rish ta’ssurotlari orqali mustahkamlashdan iboratdir.

O‘quvchilarni amaliyotga olib chiqish va uni o‘tkazish bir nyecha bosqichda, quyidagi ishlarni bajarish bilan izoxlanadi.

I. O‘quvchilarni amaliyot o‘tashga tayyorlash ishlari, ularga yo‘l-yo‘riq tushunchalari byerish bilan boshlanadi. O‘quvchilarga amaliyotni o‘tkazishdan maqsad va amaliyot davrida bajariladigan vazifalar batafsil tushuntiriladi. O‘quvchilarni o‘zlashtirish qobiliyatiga va amaliyot o‘tayotgan joyni sharoitiga qarab almashtirish, jadvallari va guruhlari tuziladi.

Amaliyot mobaynida o‘quvchilarga o‘rganish uchun bajariladigan ishlar bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar byeriladi. Amaliyot mobaynida o‘quvchilar rioya qiladigan myehnat xavfsizlik qoidalari bo‘yicha tushunchalar byeriladi.

Gazlamalarga ishlov byerish bo‘yicha maktab atrofida faoliyat ko‘rsatayotgan milliy xalq hunarmandchilik soxalari haqida o‘quvchilarga tushuncha va ko‘rsatmalar byeriladi.

II. Umum o‘rta ta’lim maktablari atrofida joylashgan va 5-sinf o‘quvchilarini o‘quv yili mobaynida olgan bilim, ko‘nikmalariga mos holda o‘zida mujassamlashgan tikuvchilik hamda to‘quvchilik ishlab chiqarish korxonalari bilan o‘zaro huquq va majburiyatlari ifolangan kyelishuv shartnomasi asosida amaliyotiga olib chiqiladi.

O‘quvchilarni myehnat va harakat xavfsizlik qoidalari, amaliyot mobaynida kunlik vaqt davomiyligi, muddati, ish joylari bilan tanishtirilib tyegishli jurnallarga imzo qo‘ydiriladi.

III. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida amaliyot davrida o‘quv yili mobaynida olgan tikuvchilik matyeriallari, asbob-uskunalari, jihozlari, tikuv mashinalari, to‘quvchilik tyexnologiyasi haqidagi taassavurlarini byevosita gazlamalar va ularga ishlov byerib, maxsulot kiyimlarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv maxoratiga oid malakalarini mustahkamlash uchun mustaqil amaliy o‘rganish ishlarini bajaradilar.

Mustaqil amaliy o‘rganish ishlarini bajarish uchun o‘quvchilar psixofizologik qobiliyatini hisobga olgan holda o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan komplyeks variantdagi amaliy myehnat topshiriqlarini o‘quvchilarga mustaqil bajartiriladi. Tikuvchilik va to‘quvchilik usta hunarmand huzurida o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish mashg‘ulotlari tashkil qilinadi.

IV. Amaliyot o‘quvchilarni yakuniy hisobot tayyorlab topshirishlari bilan yakunlanadi. O‘quvchilar tayyorlagan hisobotlarida amaliyot o‘talgan jamoalari tarixi, faoliyatlari, o‘zlarini bajargan kundalik ishlari, o‘qituvchi va jamoa xodimlari yordamida ko‘rgan va olgan ta’ssurotlari bo‘yicha puxta mustahkamlash orqali egallagan maxoratlarini ifadolovchi umumxulosalar yoritilishi kyerak.

O‘qituvchi amaliyot yakunida o‘quvchilarni tayyorlagan hisobotlari asosida og‘zaki so‘roq orqali o‘quvchilarni gazlamashunoslik va gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarini saviyasini baxolaydilar.

Quyida myehnat ta’limining gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv yili oxirida o‘quv amaliyotini tashkil qilish va o‘tkazish uchun namunaviy ishlanma jadvali kyeltirilgan.

jadval

| № | Mustahkamlashga qaratilgan bo‘limlar va mavzular. | O‘quvchilarni amaliyotda bajarishi kyerak bo‘lgan o‘rganish ishlari. | O‘quvchilarni bajargan o‘rganish ishlari. | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. | Tabiiy tolalar, tabiiy tolali gazlamalar haqida. | Tolalar turlari, tuzilishi, gazlamalar bilan amaliy tanishish. | Paxta va zig‘ir tolalari bilan amaliy tanishildi. | |
| 2. | Tikuvchilik va to‘quvchilikda foydalaniladigan | Tikuv ignalari va to‘quvchilik spitsalari va boshqa asbob- | Tikuv ignalari, to‘quvchilik ilmoqlari bilan | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | asbob uskunalar haqida. | uskunalar bilan amaliy tanishish. | amaliy tanishildi. | |
| 3. | Qo‘l yuritmali tikuv mashinalari haqida. | Qo‘l yuritmali tikuv mashinasi tuzilishi va ishlashi bilan amaliy tanishish. | Qo‘l yuritmali tikuv mashinasi bilan amaliy holda to‘liq tanishildi. | |
| 4. | Maktabgacha bolalarga oid kiyimlarni bichish va tikish haqida. | Maktabgacha bolalarga oid kiyimlarni modyellashtirish, bichish, tikish ishlari bilan amaliy tanishish. | Maktabgacha bolalar ichki kiyimlarini bichish va tikish ishlari bilan amaliy tanishildi. | |
| 5. | Gazlamalarga ishlov byerishga oid xalq hunarmandchilik soxalari haqida | Gazlamaga ishlov byerishga asoslangan hunarmandchilik tyexnologiyalari bilan amaliy tanishish. | Hunarmandchilik soxalarida tayyorlangan buyumlar bilan tanishildi. | |
| 6. | Kashtachilik haqida. | Kashtachilik tyexnologiyalari bilan amaliy tanishish. | Usta hunarmand huzurida kashtachilik usullari o‘rganiladi. | |

Izoh: gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi va pazandachilik asoslari yo‘nalishi umumlashtirilgan hollarda birlashtirilib amaliyot ishlanmasini tuzish mumkin.

6-sinflar uchun myehnat ta’limining gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv amaliyoti tashkil qilishning namunaviy ishlanmasini tuzish asoslari. 6- sinf o‘quvchilarga o‘quv yili davomida myehnat ta’limining

gazlamalarga ishlov byerish tyexnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan o‘quv amaliyot davrida byevosita qatnashish va ko‘rish ta’ssurotlari orqali mustahkamlash imkoniyati bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘quv yili mobaynida mashg‘ulotlar davomida jun va ipak tolalar, jun va ipak tolali gazlamalar, ularga oyoq yuritmali tikuv mashinalarida ishlov byerish tyexnologiyalari, maktab yoshidagi bolalarga oid kiyimlarni bichish, tikish, modyellashtirish, tayyorlashga oid bilimlar bilan tanishgan bo‘lsa, o‘quv amaliyotida ular byevosita yaqindan ko‘rish ta’ssurotlari orqali amaliy tanishadilar.

O‘quvchilarga o‘quv amaliyoti o‘tkazishdan maqsad ular olishgan va egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini byevosita amaliyot mobaynida mustaqil ishlar bajarish va ko‘rish ta’ssurotlari orqali mustahkamlashdan iboratdir.

O‘quvchilarni amaliyotga olib chiqish va uni o‘tkazish uchun quyidagi ishlarni bajarish kerak bo`ladi.

I. O‘quvchilarni amaliyot o‘tashga tayyorlash ishlari, ularga yo‘l-yo‘riq tushunchalari byerish bilan boshlanadi. O‘quvchilarga amaliyotni o‘tkazishdan maqsad va amaliyot davrida bajariladigan vazifalar batafsil tushuntiriladi. O‘quvchilarni o‘zlashtirish qobiliyatiga va amaliyot o‘tayotgan joyni sharoitiga qarab almashtirish, jadvallari va guruhlari tuziladi.

Amaliyot mobaynida o‘quvchilarga o‘rganish uchun bajariladigan ishlar bo‘yicha tavsiya va ko‘rsatmalar byeriladi. Amaliyot mobaynida o‘quvchilar rioya qiladigan myehnat xavfsizlik qoidalari bo‘yicha tushunchalar byeriladi.

Gazlamalarga ishlov byerish bo‘yicha maktab atrofida faoliyat ko‘rsatayotgan milliy xalq hunarmandchilik soxalari haqida o‘quvchilarga tushuncha va ko‘rsatmalar byeriladi.

II. Umum o‘rta ta’lim maktablari atrofida joylashgan va 6-sinf o‘quvchilarini o‘quv yili mobaynida olgan bilim, ko‘nikmalariga mos holda o‘zida mujassamlashgan tikuvchilik hamda to‘quvchilik ishlab chiqarish korxonalari bilan o‘zaro huquq va majburiyatlari ifolangan kyelishuv shartnomasi asosida amaliyotiga olib chiqiladi.

O‘quvchilarni myehnat va harakat xavfsizlik qoidalari, amaliyot mobaynida amoliyotni kunlik vaqt davomiyligi va muddati, ish joylari bilan tanishtirilib tyegishli jurnallarga imzo qo‘ydiriladi.

III. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida amaliyot davrida o‘quv yili mobaynida olgan tikuvchilikda ishlatiladigan matyeriallar, asbob-uskunalar, jihozlar, oyoq yuritmali tikuv mashinalari, to‘quvchilik tyexnologiyasi haqidagi tasavvurlarini byevosita gazlamalarga ishlov byerib, mahsulot kiyimlarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv maxoratiga oid malakalarini mustahkamlash uchun mustaqil amaliy o‘rganish ishlarini bajaradilar.

Mustaqil amaliy o‘rganish ishlarini bajarish uchun o‘quvchilar psixofizologik qobiliyatini hisobga olgan holda o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan komplyeks variantdagi amaliy myehnat topshiriqlarini o‘quvchilarga mustaqil bajartiriladi. Tikuvchilik va to‘quvchilik usta hunarmand huzurida o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish mashg‘ulotlari tashkil qilinadi.

IV. Amaliyot o‘quvchilarni yakuniy hisobot tayyorlab topshirishlari bilan yakunlanadi. O‘quvchilar tayyorlagan hisobotlarida amaliyot o‘talgan jamoalari tarixi, faoliyatlari, o‘zlarini bajargan kundalik ishlari, o‘qituvchi va jamoa xodimlari yordamida ko‘rgan va olgan ta’ssurotlari bo‘yicha puxta mustahkamlash orqali egallagan maxoratlarini ifadolovchi umumxulosalar yoritilishi kyerak.

O‘qituvchi amaliyot yakunida o‘quvchilarni tayyorlagan hisobotlari asosida og‘zaki so‘roq orqali o‘quvchilarni gazlamashunoslik va gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi bo‘yicha egallagan bilim, ko‘nikma, malakalarini saviyasini baxolaydilar.

Quyida myehnat ta’limining gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha 6- sinflar uchun o‘quv yili oxirida o‘quv amaliyotini tashkil qilish va o‘tkazish uchun namunaviy ishlanma jadvali kyeltirilgan.

7-jadval

| № | Mustahkamlashga qaratilgan bo‘limlar va mavzular. | O‘quvchilarni amaliyotda bajarishi kyerak bo‘lgan o‘rganish ishlari. | O‘quvchilarni bajargan o‘rganish ishlari. | Izoh |
|---|---|---|---|---|
| **1** | **2** | **3** | **4** | **5** |
| 1. | Jun va ipak tolalar. Jun va ipak tolali gazlamalar haqida. | Tolalar turlari, tuzilishi, gazlamalar bilan amaliy tanishish. | Jun va ipak tolalari bilan amaliy tanishildi. | |
| 2. | Tikuvchilik va to‘quvchilikda foydalaniladigan asbob uskunalar haqida. | Mashinani tikuv ignalari va to‘quvchilik spitsalari hamda kiyim furniturasi boshqa asbob-uskunalar bilan amaliy tanishish. | Ilgak va halqalar, to‘quvchilik ilmoqlari bilan amaliy tanishildi. | |
| 3. | Oyoq yuritmali tikuv mashinalari haqida. | Oyoq yuritmali tikuv mashinasi tuzilishi va ishlashi bilan amaliy tanishish. | Oyoq yuritmali tikuv mashinasi bilan amaliy holda to‘liq tanishildi. | |
| 4. | Maktab yoshidagi bolalarga oid kiyimlarni bichish va tikish haqida. | Maktab yoshidagi bolalarga oid kiyimlarni modyellashtirish, bichish, tikish ishlari bilan amaliy tanishish. | Maktab yoshidagi bolalar uchun nimcha kiyimlarini bichish va tikish ishlari bilan amaliy tanishildi. | |
| 5. | Gazlamalarga ishlov byerishga oid | Zardo`zlik xalq hunarmandchilik | Zar to`n tayyorlash | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | zardo`zlik xalq hunarmandchiligi haqida | tyexnologiyalari bilan amaliy tanishish. | jarayoni bilan tanishildi. | |
| 6. | Gilamchilik haqida. | Gilam tayyorlash tyexnologiyalari bilan amaliy tanishish. | Usta hunarmand huzurida gilam to`qish usullari o‘rganiladi. | |

Izoh: gazlamaga ishlov byerish tyexnologiyasi va pazandachilik asoslari yo‘nalishi umumlashtirilgan hollarda birlashtirilib amaliyot ishlanmasini tuzish mumkin.

7-sinflar uchun mehnat ta’limining gazlamaga ishlov berish texnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv amaliyotini tashkil qilishning namunaviy ishlanmasini tuzish asoslari. O‘quvchilarga 7-sinflarda o‘quv yili davomida mehnat ta’limining gazlamaga ishlov berish texnologiyasi yo‘nalishi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘quv yili oxirida o‘tkaziladigan o‘quv amaliyot davrida bevosita qatnashish va ko‘rish ta’ssurotlari orqali mustahkamlash imkoniyati bo‘ladi.

O‘quvchilar o‘quv yili mobaynida mashg‘ulotlar davomida sun’iy tolalar, sun’iy tolali gazlamalar va ular xususiyatlari elektr ishlov yuritmali tikuv mashinalari, katta yoshdagi kishilarga oid kiyimlarni bichish, tikish, modellashtirish, tayyorlashga oid bilimlar bilan tanishgan bo‘lsa, o‘quv amaliyotida ular bevosita yaqindan ko‘rish ta’ssurotlari orqali amaliy tanishadilar.

O‘quvchilarga o‘quv amaliyoti o‘tkazishdan maqsad ular olishganva egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini bevosita amaliyot mobaynida mustaqil bajarish va ko‘rish ta’ssurotlari orqali mustahkamlashdan iboratdir.

O‘quvchilarni amaliyotga olib chiqish va unda quyidagi ishlarni bajarish lozim bo’ladi.

I.O‘quvchilarni amaliyot o‘tashga tayyorlash ishlari, ularga yo‘l-yo‘riq tushunchalari berish bilan boshlanadi. O‘quvchilarga amaliyotni o‘tkazishdan maqsad va amaliyot davrida bajariladigan vazifalar batafsil tushuntiriladi.

O‘quvchilarni o‘zlashtirish qobiliyatiga va amaliyot o‘tayotgan joyni sharoitiga qarab almashtirish, jadvallari va guruhlari tuziladi.

